

ISSN:3060-4567 Modern education and development
QORAKO'L ZOTILI QO'YLARNING TERILARIDAGI JUN
TOLASINING IPAKSIMONLIGI

Ilmiy rahbar

Amonov Rasul Chorshambi o'g'li,

Bakalavr Ja'habaev Timur Baxadir Uli

Bakalavr Allambergenova Zamira Rashid qızı

Bakalavr Kaljanbayev Sagindiq Paraxat uli

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va

biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. *Bu moqolada qorako'l zotili qo'ylarning terilaridagi jun tolasining ipaksimonligi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Jun tolalari , sovliqlarning yoshi , kuchli ipaksimon , ipaksimon.*

Kirish. Hozirgi kunda qorako'l qo'ylari evolyutsion jihatdan shakllanganlik, ekologik jihatdan cho'l sharoitiga moslashganlik, irsiy jihatdan mustahkamlanganlik, turli rang, rangbaranglik, gul xususiyatlari bilan xarakterlanuvchi qimmatli genofond hisoblanib, dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida muvaffaqiyatli urchitiladi.

Tatqiqot maqsadi. Jun tolalarining sifati ko'pgina omillarga bog'liq. Ma'lum tadqiqotlarda aniqlanishicha ushbu ko'rsatkichlar, ya'ni ipaksimonlik va yaltiroqlik ko'rsatkichlari turli yoshdagi sovliqlar yoshiga va shu jumladan ular bilan olib borilgan seleksiya-naslchilik ishlari ko'lamiga bog'liq hisoblanadi. Yana bir jihatni ta'kidlash joizki, jun tolalarining uzun bo'lishi uning sifatini pasaytiradi, kalta bo'lish sharoitida esa yaxshilanadi. Mantiqan, belgilarning korrelyativ bog'liqligi nuqtai nazaridan qaralsa gullar o'lchamining (kengligi) turlicha bo'lishi jun tolalarining uzun yoki kalta bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

Tatqiqot manbai va usullari. Tadqiqotimiz Buxoro viloyatining janubiy g'arbiy qumli cho'l hududida joylashgan Jondor tumani Amir Temur qorako'chilik naslchilik ma'suliyati cheklangan jamiyati xo'jaligida o'tkazildi.

Tatqiqot natijalari. Qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda tadqiqotlar davomida turli yoshdagi sovliqlardan olingan avlodlar terisi jun tolalarining ipaksimonlik ko'rsatkichlariga ta'sir etish chegaralarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borildi. Olingan natijalar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Terilar jun tolasining ipaksimonligi

Sovliqlar ning yoshi	Bahola ngan terilar, dona	Ipaksimonlik, %					
		Kuchli ipaksimon		Ipaksimon		Yetarli emas	
		soni	%	soni	%	soni	%
1,5 - 3,5	22	17	77,3	3	13,6	2	9,1
3,5 – 5,5	28	23	82,1	4	14,3	1	3,6
5,5 – 7,0	36	30	83,3	6	16,7	-	-
Jami	86	70	81,4	13	15,1	3	3,5

1-Jadval ma'lumotlari tahlilidan turli yoshdagi qo'ylar avlodlarida jun tolalari sifatining yaxshilanish tendensiyasini kuzatish mumkin.

Xulosa

1,5 - 3.5 yoshli qo'ylar avlodlarining atiga 77,3 foizi, 3,5 – 5,5 va 5,5 – 7,0 yoshlilarda esa o'z navbatida 82,1 va 83,3 foizlarni kuchli ipaksimonlikga ega terilar tashkil qilgan. Turli yoshdagi qo'ylar avlodlarining ipaksimonlik ko'rsatkichi bo'yicha taqsimlanishda shu kuzatilgan holatlar qayd etildi.

Xulosa qilish mumkinki, sovliqlarning yoshi ular avlodi jun tolalarining sifatiga ham m'lum darajada ta'sir ko'rsatuvchi belgi hisoblanadi va bu holatdan seleksiya jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

1. Юсупов С. Ю., Газиёв А., Фазилов У., Қоракўл териларига бирламчи ишлов бериш технологиясини такомиллаштириш // «Республика чорвачиликни ривожлантириш ва соҳада озуқа базасини мустаҳкамлашнинг устувор вазифалари» мавзусидаги республика илмий- амалий конференцияси. Тошкент 2011. 25 ноябр. 59-62 б.

2. Юсупов С. Ю., Базаров С. Ўзбекистон қоракўлчилигининг ҳолати // Республикада чорвачиликни ривожлантириш ва соҳада озуқа базасини мустаҳкамлашнинг устувор вазифалари мавзусидаги республика илмий – амалий конференция Тошкент 2011. 25 ноябр. 67-70 б.

3. Фазилов У.Т., Газиёв А., Юсупов С.Ю. Особенности проявления окрасок и расцветок у ягнят каракульских овец. //Брошюра. Самарканд, 2017. 38 с.